

## **“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDA QO‘LLANGAN MAQOLLAR SEMANTIKASI**

**Do‘stmurodova Sevinch,**  
*Nizomiy nomidagi TDPU  
O‘zbek tili va adabiyoti  
fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: F. Abdujabbarova,  
f.f.n., dotsent*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida qo‘llangan maqollar tahlili berildi. Maqollar tahlilida o‘zbek xalqining o‘zga xos zakiyligi, mehmondo‘stligi hikmatli hamda purma‘no fikrlari og‘izdan og‘izga ko‘chib yurganini guvohi bo‘ldik.*

***Kalit so‘zlar:** maqol, zakiylik, purma‘no fikr, xalq obrazi, gapga chechanlik, suxandonlik.*

“Ikki eshik orasi” asari O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub hisoblanadi. Asar muqaddima, 7 qism, 47 bob va xulosadan iborat bo‘lib, 47 yillik davrni o‘z ichiga olgan, bir qancha chigal taqdirlar misolida, xalqning urush sababli qancha qiynalganligini o‘ziga xos bir uslub bilan tasvirlab bergan.

“Ikki eshik orasi” romanining g‘oyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, asar o‘zining yuksak ma‘no kasb etishi bilan ajralib turadi. Romanda o‘z davrining muhim muammosi bo‘lgan ikkinchi jahon urushining og‘irliklarini yelkasida ko‘targan xalq obrazi tasvirlanadi. Qahramonlarning hayotini yozuvchi zo‘r mahorat bilan tasvirlar ekan kitobxonni ular haqida o‘ylashga undaydi. Romanda o‘nlab katta-kichik obrazlar mavjud bo‘lib, ular xarakteri, xatti-harakatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Asarda Robiya, Qora amma, Muzaffar bosh obrazlar hisoblanadi. Asar to‘qqizta personaj tilidan hikoya qilinadi. Har bir obraz o‘z hayotini voqealar davomida hikoya qilib boradi.

O‘tkir Hoshimov o‘zining bu asarida maqollar, hikmatli so‘zlar, iboralar va o‘xshatishlardan mahorat bilan foydalangan. Biz ushbu asardagi maqollarga to‘xtalar ekanmiz, ulardagi maqollarni o‘qib, oddiy xalqni qanchalik gapga chechanligini ya‘ni suxandonligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “Mehmon otangdek ulug‘”, “Bersang yeyman, bermasang o‘laman”, “Mol egasiga o‘xshamasa harom o‘ladi”, “Jo‘jani kuzda sanaymiz”, “Ot aylanib qozig‘ini topadi”, “Shirin yolg‘ondan achchiq haqiqat yaxshi”, “Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u”, “Suymaganga suykalma”, “Ot o‘rnini toy bosar”, “Sabrning tagi sariq oltin”, “Bo‘rini eslasang qulog‘I ko‘rinadi”, “Yaxshi kelsa kut, yomon kelsa yut” kabi maqollardan mohirona foydalangan. Asarda joy olgan:

- Bahay! “Mehmon otangdek ulug” – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kelibsiz, mehmon! Ushbu gapdagi maqol zamirida azal-azaldan o‘zbek xalqini juda mehmondo‘st ekanligini, o‘zining yeyishga noni bo‘lmasa ham kelgan mehmonni ochiq chehra va samimiyat ila kutib olishini ko‘rishimiz mumkin. Xalqimizda bu maqolga o‘xshash yana bir maqol bor ya‘ni “Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan”. Bu ikki maqol bir-biriga ma‘no jihatdan juda yaqin. Bu maqollar kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan emas. Bu maqollar asrlar davomida sayqallanib bizga shu tarzda yetib kelgan. Ushbu maqol XI asrda Mahmud Ko‘shg‘ariy qalamiga mansub bo‘lgan “Devoni lug‘otit-at turk” asarida “Uma kelsa , qut kelar” shaklida qo‘llangan. Ya‘ni “senga mehmon kelsa , u bilan birga baraka, qut-baxt keladi , qo‘noqni yaxshi qarshi oladilar , malol olmaydilar” degan fikr ilgari surilgan . Ya‘ni asardagi “ oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u “ maqoliga to‘xtaladigan bo‘lsak: inson yaxshi va yomon kunlari boshidan kechiradi. Yaxshi kunlarni ham, yomon kunlarni ham sabr toqat ila o‘tkazmog‘i darkor . Ba‘zan shunday qorong‘i kunlar inson boshiga kelganda , inson o‘zini ojiz shaxs sifatida sanab “ bu kunlardan qanday o‘tarkanman “- deya o‘zini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak. Ushbu asar qahramonlari ham har qanday vaziyatda o‘zlarini matonatli inson sifatida ko‘rsata bilganlar. Asardagi Orif oqsoqol obrazi boshqa obrazlardan sabr timsoli sifatida ajralib turadi. Ikki o‘g‘lini ham urushda qurbon bo‘lishiga qaramasdan o‘zini hech qachon o‘zgalar oldida ojiz shaxs sifatida ko‘rsatmaydi. Boshiga har qancha qiyinchiliklar tushmasin atrofidagi insonlar dardiga sherik bo‘ladi. Yana asardagi :

- Safar akaning gapi hali ham xayolimdan ketmasdi. Rost aytadi. Orqa etagimda og‘irligim yo‘q, xarxasha qiladigan xotinim yo‘q. “ Bersang yeyman, bermasang o‘laman “ deydigan bolam yo‘q .... Mana shu maqolga to‘xtaladigan bo‘lsak”, Bersang yeyman, bermasang ochlikdan o‘laman”,- deb yashamaslik kerak. Inson harakat qilsagina nimagadir ega bo‘ladi .Hayot sinovlari bilan bemalol yuzlasha oladi. Asardagi yana bir “ Sabr tagi sariq oltin “ maqoli ham diqqatimizni tortadi. Bu maqolga to‘xtaladigan bo‘lsak, inson tug‘ilganidan to o‘lgunga qadar hayot musobaqasidan aslo uzoqlashmaydi . Qayta va qayta unda ishtirok etaveradi. Ba‘zan bu musobaqada g‘olib, ba‘zan esa mag‘lub bo‘ladi. Har xil to‘siqlarga duch keladi, kurashadi va oxirida chinakam sabrli insonlargina muvaffaqiyatga erishadilar.

<sup>1</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.(I, жилд).–Т., 1963.-Б.73

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, yozuvchi bu asarda xilma-xil janrlardan mohirona foydalangan. Asardagi maqollarga kelsak ular mazmun jihatdan ulkan ma’no kasb etadi. Har bir qo‘llangan maqol o‘zining serjilo mohiyatini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуллаев. Ҳ. “Қутадғу билиг”даги халқ мақолларининг бадий-эстетик вазибалари // “Қутадғу билиг” – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. –Т., 2010.
2. Абдурахмонов Ҳ. , Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси.–Т.: Фан, 1981.–15 б.
3. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. автореф.–Тошкент, 2009.
4. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.–Т.: Университет, 2006.
5. О‘збек халқ мақоллари. – Ташкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 127 б.